




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil yanvar-fevral



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)




Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
68,7%



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
1 771,5
ming. so'm



Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi - **68,5%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(1-mart holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-fevral)





Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- mart holatiga ko'ra)



Soni, birlikda



Soni, birlikda


Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-fevral)




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-fevral)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-fevral)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati ¹⁾	5 354,6	100,0	113,4
Nurafshon sh.	159,8	3,0	113,8
Olmaliq sh.	382,7	7,1	113,2
Angren sh.	371,2	6,9	112,3
Bekobod sh.	255,8	4,8	113,3
Ohangaron sh.	106,6	2,0	113,6
Chirchiq sh.	446,2	8,3	112,8
Yangiyo'l sh.	238,5	4,5	113,1
Oqqo'rg'on t.	145,2	2,7	112,5
Ohangaron t.	81,8	1,5	113,6
Bekobod t.	162,8	3,0	113,5
Bo'stonliq t.	351,0	6,6	114,5
Bo'ka t.	153,2	2,9	111,7
Quyi Chirchiq t.	111,0	2,1	111,9
Zangiota t.	516,9	9,7	114,1
Yuqori Chirchiq t.	210,7	3,9	114,1
Qibray t.	460,1	8,6	114,6
Parkent t.	204,1	3,8	113,3
Piskent t.	89,2	1,7	112,9
O'rta Chirchiq t.	171,0	3,2	113,9
Chinoz t.	176,4	3,3	112,8
Yangiyo'l t.	257,2	4,8	112,5
Toshkent t.	303,2	5,6	114,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	1 771,5	111,3
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	2 895,5	110,1
Olmaliq	2 667,2	110,7
Angren	2 056,6	109,8
Bekobod	2 483,2	111,1
Ohangaron	2 601,1	111,9
Chirchiq	2 616,9	110,1
Yangiyo'l	2 849,6	109,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	1 305,8	110,6



Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, %da
Ohangaron	741,8	111,4
Bekobod	990,0	111,7
Bo'stonliq	1 994,0	113,2
Bo'ka	1 147,9	109,9
Quyi Chirchiq	964,2	110,0
Zangiota t.	3 054,9	112,8
Yuqori Chirchiq	1 523,6	112,1
Qibray	2 641,5	113,6
Parkent	1 155,0	111,3
Piskent	871,1	111,4
O'rta Chirchiq	1 258,1	112,3
Chinoz	1 224,1	110,3
Yangiyo'l	1 296,4	110,3
Toshkent	1 550,1	111,2

2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida aholi jon boshiga eng yuqori xizmatlar hajmi Zangiota tumanida **3 054,9** ming. so'mni tashkil etdi va uncha yuqori bo'lmagan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi Ohangaron tumanida **741,8** ming. so'mga to'g'ri keldi.



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Xizmatlar – jami	5 354,6	100,0	113,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	191,5	3,6	118,3
Moliyaviy xizmatlar	836,0	15,6	113,0
Transport xizmatlari	1 287,8	24,1	110,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>1 215,4</i>	<i>22,7</i>	<i>110,2</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	256,2	4,8	110,9
Savdo xizmatlari	1 539,0	28,7	111,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	176,5	3,3	112,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	115,0	2,1	120,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	145,9	2,7	128,4
Ijara xizmatlari	154,0	2,9	113,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	123,3	2,3	107,9
Shaxsiy xizmatlar	169,0	3,2	108,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	93,5	1,7	155,8
Boshqa xizmatlar	266,9	5,0	127,4


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan Toshkent viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2024- yil yanvar-fevral)



Toshkent viloyatida moliyaviy xizmatlar hajmi **134,6** mlrd. so'mga oshib, **836,0** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy bozor xizmatlari hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **15,6** %ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **113,0** %ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-fevral)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	1 287,8	100,0	110,2
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	35,3	2,7	110,5
Olmaliq	81,6	6,3	109,9
Angren	95,5	7,4	109,0
Bekobod	66,4	5,2	109,9
Ohangaron	19,8	1,5	110,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)


Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Chirchiq	95,3	7,4	109,5
Yangiyo'l	79,1	6,1	109,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	32,1	2,5	109,2
Ohangaron	20,2	1,6	110,2
Bekobod	35,3	2,7	110,2
Bo'stonliq	71,4	5,5	111,2
Bo'ka	30,9	2,4	108,4
Quyi Chirchiq	50,5	3,9	108,6
Zangiota	68,7	5,3	110,8
Yuqori Chirchiq	80,2	6,2	110,8
Qibray	85,8	6,7	111,3
Parkent	59,6	4,6	110,0
Piskent	33,1	2,6	109,6
O'rta Chirchiq	39,8	3,1	110,6
Chinoz	42,5	3,4	109,5
Yangiyo'l	99,8	7,9	109,2
Toshkent	64,9	5,0	111,0

Yangiyo'l tumanida transport xizmatlari hajmi **99,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **109,2** %ni tashkil etgan.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **70,4** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)



Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	1 539,0	100,0	111,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	23,3	1,5	110,0
Olmalik	113,4	7,4	114,3
Angren	119,2	7,7	113,4
Bekobod	87,0	5,7	114,4
Ohangaron	38,6	2,5	110,7
Chirchiq	100,0	6,5	114,0
Yangiyo'l	88,5	5,7	114,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)


Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	73,3	4,8	110,7
Ohangaron	28,2	1,8	114,7
Bekobod	48,9	3,2	114,7
Bo'stonliq	56,6	3,7	115,7
Bo'ka	78,6	5,1	112,9
Quyichirchiq	13,2	0,9	109,1
Zangiota	96,3	6,3	115,3
Yuqorichirchiq	60,6	3,9	115,3
Qibray	82,2	5,3	115,8
Parkent	68,3	4,4	114,4
Piskent	17,2	1,1	110,1
O'rta Chirchiq	85,4	5,5	115,1
Chinoz	62,4	4,1	113,9
Yangiyo'l	93,6	6,1	113,7
Toshkent	104,2	6,8	115,6

Hududlar kesimida eng yuqori savdo xizmatlari hajmi Angren shahri hissasiga to'g'ri keldi (**119,2** mlrd. so'm). Ushbu hududning jami savdo xizmatlari hajmidagi ulushi **7,7** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-fevral** oylarida ularning ulushi **85,5** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	191,5	100,0	118,3
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	6,3	3,3	120,7
Olmalik	8,4	4,4	119,9
Angren	9,3	4,9	119,0
Bekobod	5,2	2,7	120,0
Ohangaron	3,0	1,5	115,3
Chirchiq	12,0	6,3	119,6
Yangiyo'l	2,8	1,5	114,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari


(2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	6,2	3,3	119,2
Ohangaron	5,9	3,1	117,3
Bekobod	9,0	4,7	120,3
Bo'stonliq	16,1	8,4	121,4
Bo'ka	6,0	3,1	118,4
Quyichirchiq	5,9	3,1	118,6
Zangiota	18,4	9,6	120,9
Yuqorichirchiq	6,8	3,6	120,9
Qibray	20,0	10,4	121,5
Parkent	7,4	3,8	120,0
Piskent	5,2	2,7	115,7
O'rta Chirchiq	9,2	4,8	120,7
Chinoz	9,1	4,8	119,5
Yangiyo'l	9,3	4,8	119,3
Toshkent	10,0	5,2	121,2

Hududlar kesimida eng yuqori aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi Qibray tumanida qayd etilgan (**20,0** mlrd. so'm) va ushbu hududning jami aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmidagi ulushi **10,4** %ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-fevral)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmi **2024- yil yanvar-fevral** oylarida jami **115,0** mlrd. so'mni hamda o'sish **+20,9 %**ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	115,0	100,0	120,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	2,2	1,9	120,3
Olmalik	7,9	6,9	119,6
Angren	7,4	6,4	118,7
Bekobod	4,4	3,8	119,7
Ohangaron	1,6	1,4	120,0
Chirchiq	36,0	31,3	121,2
Yangiyo'l	4,9	4,2	119,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1,4	1,2	118,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Ohangaron	0,9	0,8	120,0
Bekobod	1,6	1,4	120,0
Bo'stonliq	3,3	2,8	121,0
Bo'ka	1,8	1,5	118,1
Quyi Chirchiq	1,8	1,6	118,3
Zangiota	11,3	9,9	122,6
Yuqori Chirchiq	3,2	2,8	120,6
Qibray	9,8	8,5	121,1
Parkent	3,2	2,8	119,7
Piskent	1,1	0,9	119,3
O'rta Chirchiq	0,9	0,7	120,4
Chinoz	2,1	1,8	119,2
Yangiyo'l	1,2	1,2	118,9
Toshkent	7,0	6,2	121,9


Hududlar kesimida eng yuqori ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi Chirchiq shahrida qayd etilgan (**36,0** mlrd. so'm) va o'sish sur'ati **121,2** %ni tashkil etdi. Eng kam ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi O'rta Chirchiq tumanida (**0,9** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda o'sish sur'ati **120,4** %ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral)

2024- yilning yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi jami **145,9** mlrd. so'mni tashkil etdi hamda o'sish **+28,4** %ga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	145,9	100,0	128,4
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	4,3	2,9	115,2
Olmalik	6,8	4,7	114,5
Angren	5,1	3,5	113,6
Bekobod	5,7	3,9	114,6
Ohangaron	1,0	0,7	114,9
Chirchiq	13,4	9,2	129,1
Yangiyo'l	2,9	2,0	114,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1,1	0,8	113,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Ohangaron	0,3	0,2	114,9
Bekobod	1,0	0,7	114,8
Bo'stonliq	22,3	15,3	130,8
Bo'ka	0,6	0,4	113,0
Quyi Chirchiq	0,5	0,4	113,2
Zangiota	30,7	21,0	129,4
Yuqori Chirchiq	2,4	1,6	115,4
Qibray	7,7	5,3	129,9
Parkent	0,8	0,6	114,6
Piskent	0,6	0,4	114,2
O'rta Chirchiq	4,3	3,0	115,2
Chinoz	4,3	3,0	114,1
Yangiyo'l	5,1	3,4	113,8
Toshkent	25,0	17,0	130,7

Hududlar kesimida eng yuqori sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi Zangiota tumanida qayd etilgan (**30,7** mlrd. so'm) va o'sish sur'ati **129,4** %ni tashkil etdi. Eng kam sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi Ohangaron tumanida (**0,3** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda o'sish sur'ati **114,9** %ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yi-cha xizmatlar ustunlik qildi – **79,7** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	256,2	100,0	110,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	16,9	6,6	105,1
Olmaliq	22,8	8,9	114,5
Angren	13,1	5,1	103,7
Bekobod	7,2	2,8	104,6
Ohangaron	11,3	4,4	104,9
Chirchiq	32,9	12,8	114,2
Yangiyo'l	7,4	2,9	104,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2,2	0,9	103,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Ohangaron	3,3	1,3	104,9
Bekobod	3,0	1,2	104,9
Bo'stonliq	29,0	11,3	115,8
Bo'ka	3,6	1,4	103,2
Quyi Chirchiq	2,5	1,0	103,4
Zangiota	28,3	11,0	115,4
Yuqori Chirchiq	11,0	4,3	105,4
Qibray	27,5	10,7	115,9
Parkent	5,7	2,2	104,6
Piskent	3,3	1,3	104,3
O'rta Chirchiq	4,2	1,6	105,2
Chinoz	4,0	1,5	104,1
Yangiyo'l	6,5	2,5	103,9
Toshkent	10,5	4,3	115,6

Hududlar kesimida eng yuqori yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Chirchiq shahrida qayd etilgan (**32,9** mlrd. so'm) va jami hududlar kesimidagi ulushi **12,8** %ni tashkil etdi. Eng past yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Oqqo'rg'on tumanida (**2,2** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda ulushi **0,9** %ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **25,6** foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Toshkent viloyati	123,3	100,0	107,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	2,8	2,2	110,7
Olmalik	6,8	5,5	110,1
Angren	7,2	5,8	109,2
Bekobod	6,8	5,5	110,1
Ohangaron	3,1	2,5	110,4
Chirchiq	7,6	6,2	109,7
Yangiyo'l	4,7	3,8	105,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2,4	2,0	102,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral)

Hudud	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, %da	O'sish sur'ati, %da
Ohangaron	3,0	2,5	110,4
Bekobod	3,2	2,6	110,4
Bo'stonliq	6,6	5,3	111,4
Bo'ka	2,6	2,1	105,6
Quyi Chirchiq	2,9	2,3	103,8
Zangiota	23,1	18,8	111,0
Yuqori Chirchiq	4,3	3,5	111,0
Qibray	10,5	8,5	111,5
Parkent	4,5	3,6	110,2
Piskent	2,8	2,3	106,8
O'rta Chirchiq	2,7	2,2	110,8
Chinoz	3,8	3,1	109,7
Yangiyo'l	4,3	3,5	109,4
Toshkent	7,6	6,2	111,2

Hududlar kesimida eng yuqori kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi Zangiota tumanida qayd etilgan (**10,1** mlrd. so'm) va o'sish sur'ati **109,7** %ni tashkil etdi. Eng past kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari hajmi Oqqo'rg'on tumanida (**1,1** mlrd. so'm) qayd etilgan hamda o'sish sur'ati **107,4** %ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 71-202-86-72

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.